

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI MAVHUM OTLARNING SEMANTIK- USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ismatova Vasila Shodmanovna

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Lingvistika [o‘zbek tili] 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llanilgan mavhum otlar,ularning semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qay holda qo‘llanilishi xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar, tarix, abstract otlar, semantik, sinonim, omonim, fonetika, hozirgi o‘zbek adabiy tili

SEMANTIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF A SUMMARY IN DEVONU LUG'ATIT TURK

Ismatova Vasila Shodmanovna

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature 2nd year Master's degree
in Linguistics [Uzbek]

Abstract

This article discusses the abstract names used in Mahmud Kashgari's Devonu Lug'otit Turk, their semantic and methodological features, as well as how they are used in the modern Uzbek literary language.

Keywords: Turkic peoples, history, abstract names, semantics, synonyms, homonyms, phonetics, modern Uzbek literary language

Shakli har xil bo‘lsa ham ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar sinonimlar deyiladi. Bir xil ma‘noning bir necha so‘z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So‘zlarning o‘zaro sinonim munosabatda bo‘lishi sinonimiya hodisasi deyiladi. Bir umumiy ma‘nosi bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorida bir so‘z asosiy so‘z hisoblanadi. Bu so‘z barcha uslublarda qo‘llana oladi, shuning uchun [bosh so‘z], “neytral so‘z”, “betaraf so‘z”, “uslubiy neytral so‘z”, “dominanta” atamaları bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so‘z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so‘z yuzdir.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti turk” asarida ham mavhum otlarning ma‘nodoshlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda hozirgi adabiy tilimizda *tuhmat, qasam, baxt, tilak, shov-shuv, evaz, yaxshilik, uyat* kabi mavhum ma‘no ifodalovchi so‘zlarning ma‘nodoshlarini sharhlashga harakat qildik.

تېلداغ – تَدَاغٌ -*bo‘hton, tuhmat* [DLT., I., 430.] ma‘nolarini anglatuvchi so‘z devonda **Жала- يلا** – *tuhmat, birov haqida yomon fikrda bo‘lish* ma‘nosida [DLT., III., 32] shuningdek **سزك** - *sezgi, gumon* ma‘nosida [DLT., I., 387] qo‘llanilgan.

تېلداغ – تَدَاغٌ -*bo‘hton, tuhmat* ma‘nolarini anglatuvchi so‘zni devonda muallif quyidagi gap bilan izohlab beradi. **قَلْوَر تَدَاغٌ اَنْكُرْ اَنْ** – **ол аңар тїлдағ кїлур** – U unga bo‘hton qildi. Shuningdek bu so‘zning forschaga tarjimasi “bahona” dir deb izohlaydi. Ammo S.Mutallibov bunga izoh berib, “Textda shunday, ammo arabcha izohga to‘g‘ri kelmaydi; ehtimol kotib xatosi bilan **بُهْتَان** o‘rniga **بِهَانَه** yozilib qolgan bo‘lsa” degan izohni keltiradi.

Жала- يلا – *tuhmat, birov haqida yomon fikrda bo‘lish* ma‘nosini anglatuvchi so‘zni Mahmud Qoshg‘ariy devonda quyidagi gap orqali izohlaydi: *Bir xil qat-qat nonga jalachi jurga deyiladi. Ya‘ni nozikligidan bir narsaga tegishi bilan ushalib ketadigan non demakdir. Non yopuvchi buni sen sindirding deb odamga tuhmat qiladi*, deyiladi Ushbu so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda qo‘llanilmasa-da ularning anglatadigan ma‘nosini ifodalovchi *tuhmat, bo‘hton, gumon* so‘zlarini iste‘moldagi so‘zlar deyishimiz mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da bu so‘z “*ayblash, ayblov,*

ya'ni birovni ayblash va qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo, bo'hton ” deya izohlanadi. Masalan, Uying kuygurda ikki oy qadar ishladim. Keyin haydadi. Boshimga qancha **tuhmatlar** ortdi yana. Oybek, Tanlangan asarlar. [O'TIL., 226.]

Devonda qo'llanilgan mavhum otlardan yana biri hozirgi adabiy tilimizda *qasam*, *va'da*, *ahd* ma'nolarini anglatuvchi so'z besh o'rinda turlicha nomlanib qo'llanilgan. Jumladan, **элкү-ألكو** –ahd,va 'da [DLT., I., 149], **Эндкәү – اندكәوی** –qasam [DLT., I.,427.], **бичғас- بىخغاس** va 'da, void, so 'z berish [DLT.,I., 427.], **бачиғ- بىجىغ** – va 'da, ahd [DLT.,I.,352.], **кiрту- كىرتو** - qasam [DLT.,I.,394.]

Devonda **бичғас** va **Эндкәү** so'zlari quyidagi she'r tarkibida kelganligiga guvoh bo'ldik. **Бичғас** битик қилурлар

Эндкәү жама бөрүрләр,

Хандан басут тиләпләр

Басмил чумул тiркәшүр.

Mazmuni: Yakobu jangiga hoqonni yordamga chaqirib aytadi. Bizning odamlar podshohga qarshilik ko'rsatmaslik uchun muohada yozadilar.Hozir Basmil va Jumul qabilalari biz bilan urushmoqqa yig'ildilar . Hoqon ularga yetishdi, hatto ularning qonlarini to'kdi va asir qildi. [DLT.,I.,427.]

Бачиғ-بىجىغ – va 'da, ahd [DLT.,I.,352.] so'zi devonda quyidagi gap tarkibida qo'llanilgan bo'lib, bu so'zning hozirgi o'zbek adabiy tilida anglatadigan ma'nosi saqlanib qolganigiga ishonch hosil qildik.

Ол мәнің бірлә бачиғ қилді. Ya'ni, u men bilan va'dalashdi. Ushbu so'zlar anglatadigan ma'nosi nafaqat asar yaratilgan davrda, balki Alisher Navoiy asarlarida ham *va'da*, *ahd*, *ishontirish* ma'nolarini anglatganiga guvoh bo'ldik: Ey ko'ngul, dahr ahlig'a yo'q **vadau** paymon durust, Necha kuygung sen dog'i, uz **va'da** buz, paymonni ham. [*Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*, I jild, 366 b]

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da *va'da* so'zi *so'z berish*, *va'da*; *muddat* ma'nolarida izohlangan. Masalan, To'qsonov jo'nayotganida, muallimni almashtirish to'g'risidagi *va'dasi* bilan Tojiboyni qattiq ishontirib ketgan edi. P.Tursin, O'qituvchi. O'rmonjonga, Bo'taboyga, Kanizakka ko'pdan-ko'p salom aytdi va

Erur ishq oyatikim nuqtasining donasin ko‘rgach,

Tushar arvohi qudsiy qushlari beixtiyor anda - tushmoq, pastga tushmoq ma‘nosida;

Bu ish manga tushubtur – zimmaga yuklanmoq ma‘nosida; Gar Navoiydek boshingga tushsa bir qotil g‘ami, Anda dog‘i ko‘rgasen ne bo‘lsa qismat, ey rafiq-duch kelmoq, uchramoq ma‘nosida (NATIL, 263 6) izohlanganiga amin bo‘ldik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da tush so‘zi ikki xil ma‘no ifodalashi izohlanadi. 1) uyquda vujudga keladigan sub‘yektiv psixik hodisa, jarayon; uyquda ko‘riladigan obrazlar, narsalar. *Qani endi shularning hammasi tushim bo‘lsa-yu, uyg‘onib ketsam! ..Qadamimni bilib bosar edim.* A.Qahhor, Og‘riq tishlar; 2) quyosh qoq tepaga kelgan payt. *Tushda dam olmoq. Devonaning aqli tushdan keyin kiribdi.* Maqol.

سَاغ – caF

Devonda uchraydigan سَاغ – caF – sag‘ so‘zi ham shakldosh so‘z sifatida berilgan bo‘lib, 1) سَاغ – caF – aql; 2) سَاغ – caF – o‘ng, 3) سَاغ – caF – ziyraklik, tuyrakik, zehni o‘tkirlik (o‘g‘uzcha); 4) سَاغ – caF – sog‘lik, 5) سَاغ – caF – toza;

6) سَاغ – caF – yung yuvadigan savag‘ich ma‘nolarida izohlanadi. СЭНДА caF жоқ-санда ziyraklik yo‘q; jиниң caFмы - taning sog‘mi?; caF элик – o‘ng qo‘l. Bu birikmada hamma so‘z o‘g‘uzcha ekanligini, ayrim turkiy qabilalar bu so‘zlarni bilmasligini devonda ma‘lumot sifatida beradi. CaF cyw – toza, shirin suv; CaF көңүл – ko‘nglida kiri yo‘q, oq ko‘ngul odam.

NATIL da bu so‘z sog‘ tarzida beriladi va quyidagi ma‘nolari izohlanadi: 1) omon, salomat, sog‘lom; 2) hushyor, es-hushi joyida, oqil; 3) sog‘; mastning ziddi; 4) sog‘moq, sut sog‘moq (NATIL, III., 110)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham sog‘ so‘zi shakldosh so‘z sifatida berilgan. Sog‘_I – kasali yo‘q, sihat-salomatligi yaxshi; sog‘lom. Sog‘ tish. Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l! Cog‘_{II} - shevada, o‘ng ma‘nosini bildiradi. *O, bu go‘zal yo‘llar, ajoyib yo‘llar, Gul bilan qoplangan sog‘-u so‘llari. Uyg‘un. Tong qo‘shig‘i.* (O‘TIL, III., 562)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. Т. I, 1963.
 2. Болтабоев Х., Дадабоев Х.. Девону луғотит турк, I, II, III жилдлар. Тошкент: 2006-2008.
 3. М. Кошғарий. Девону луғотит турк. I. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. – Т.: ФзФА нашриёти. 1963.
 4. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати., 836, Ўзбекистон ССР Фан нашриёти., 1983.
 5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати., 226. – “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий
 6. Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Тошкент-2009
- Elektron ta'lim resurslari:
- [http://www.kitab.uz/cms/q=node/223_o1.04.08.](http://www.kitab.uz/cms/q=node/223_o1.04.08)
- www.ziyonet.uz
- www.edu.uz
- www.arxiv.uz